

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ADLIYA VAZIRLIGI**  
**X. SULAYMONOVA NOMIDAGI**  
**RESPUBLIKA SUD EKSPERTIZASI MARKAZI**  
**SUD-EKSPERTLIK ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI**



**Avtotransport vositalaridan xavfsiz  
foydalanishga doir talablar**  
(amaliy qo'llanma)



**TOSHKENT – 2023**

**Mualliflar:**

X. Sulaymonova nomidagi Respublika sud ekspertiza markazi Sud-ekspertlik ilmiy-tadqiqot instituti direktori v.v.b Maxkamov M.Z.

X. Sulaymonova nomidagi Respublika sud ekspertiza markazi sud-avtotexnika ekspertizasi laboratoriyasi mudiri Q.X.Umidillayev

Mazkur amaliy qo'llanma fuqarolarga avtotransport vositalaridan xavfsiz foydalanishga doir talablar bo'yicha sud-ekspertlari tomonidan tavsiyalar va tushunchalar berish maqsadida ishlab chiqilgan.

## KIRISH

Biz bilamizki, Respublikamizda avtomobillashtirish jarayoni tez rivojlanayotgani yo‘l harakat xavfsizligini ta’minlash masalasini dolzarb qilmoqda, shunigdek O‘zbekistonda 2016-yilda shaxsiy avtomobillar soni 2 milliondan kam bo‘lgan bo‘lsa, 2022 yil boshida ularning soni 3 milliondan oshgan.

Avtomobil transportining keng tarqalishi salbiy oqibatlarga ham olib keldi: yo‘l harakati xavfsizligi va transport xavfsizligi muammolar kelib chiqishi, katta shaharlarda (megapolislarda) tirbandlik va avtomobil yo‘llarining me’yordan yuqori yuklanishi, atrof-muhitga zararli ta’sir etishi kuzatilmoqda. Transportdagi baxtsiz hodisalar bizning davrimizning global muammolaridan biri hisoblanadi, statistik ma’lumotlarga ko‘ra, har yili 1,2 millionga yaqin odam yo‘l-transport hodisalarida (YTH) halok bo‘ladi va 50 millionga yaqin kishi har xil turdagи tan jarohati oladi, bu esa deyarli beshta yirik shaharning umumiy aholisiga teng.

Shunga ko‘ra, har soatda 170 ta inson yo‘l transport hodisasining qurboni bo‘lmoqda, bu ko‘rsatgich bo‘yicha dunyoda sodir bo‘layotgan qurolli to‘qnashuvlar, qo‘paruvchilik harakatlari, tabiiy ofatlar hamda 2019 yilda kuzatilgan COVID pandemiyasi natijasida halok bo‘lganlardan bir necha barobar ko‘pdir. Bu halokatlarning aksariyat qismi rivojlanayotgan mamlakatlar hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.


Mamlakatimizda so‘nggi yillarda yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlash tizimini takomillashtirish sohasida keng qamrovli tashkiliy amaliy ishlar olib borilmoqda. Shunigdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 04-aprel kunidagi “Avtomobil yo‘llarida inson xavfsizligini ishonchli ta’minlash va o‘lim holatlarini keskin kamaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-190-son qaroriga muvofiq yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlashning dolzarb yo‘nalishlari quyidagilar belgilandi:

- avtomobil yo‘llari infratuzilmasini takomillashtirish va ularning sifatini yaxshilash, yo‘l harakati ishtirokchilarining «piyoda — jamoat transporti — velotransport — avtotransport» ustuvorligi asosida xavfsiz harakatlanishi uchun ishonchli shart-sharoitlar yaratish;
- haydovchilarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimiga innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy qilgan holda, o‘quv jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish;
- haydovchi va piyodalarning yo‘l harakati qoidalariга rioya qilish madaniyatini oshirish, har qanday qoidabuzarlik uchun jazo muqarrarligini ta’minlash;
- yo‘l harakati qoidalari asoslarini bolalikdan singdirishni yo‘lga qo‘yish, ushbu amaliyotni maktabgacha ta’lim tashkilotlari va umumta’lim mакtablarida joriy etish;
- yo‘l harakatini tashkil etishni to‘liq raqamlashtirish, ilg‘or axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy qilgan holda, yangi boshqaruв va nazorat tizimlarini tatbiq qilish.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, O‘zbekiston Respublikasi hududida yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlash, yul xarakati barcha katnashchilarining madaniyati va fukarolik ongini oshirish maqsadida ushbu amaliy qo‘llanma ishlab chiqilishi va keng jamoatchilikka tarqatilishi dolzARB masalalardan birilagini ta’qidlash mumkin bo‘ladi.

## 1. Atotransport vositalarning tormoz tizimiga qo‘yiladigan talablar

Transport vositalaridan xavfsiz foydalanishda transport vositasi tormoz tizimining konstruksiyasiga ishlab chiqargan korxona talabiga mos kelmaydigan o‘zgartirish kiritish yoki transport vositasining shu turida ko‘zda tutilmagan tormoz suyuqligi yoki boshqa qismlar qo‘llanishi mumkin emas.



Ko‘p holatlarda eski avtomobilarning tormoz tizimiga o‘zgartirishlar kiritish yoki g’ildiraklardan birining tormoz tizimidan uzib qo‘yish (zaglushka) holatlari uchrab turadi. Bu esa, tormoz tizimi samaradorligini kamayishi hamda tormoz yo‘Ining uzunlashishiga olib keladi. Harakatga xavf paydo bo‘lganida keskin tormoz berish vaqtida tormoz tizining samaradorligi kamligi oqibatida haydovchining avtomobilni to‘xtatish imkoniyatini kamaytiradi. Shuningdek, muzlama vaqtida avtomobil boshqaruvini yo‘qotishiga sabab bo‘lishi mumkin bo‘ladi.

Transport vositasining tormoz tizimi konstruksiyasiga ishlab chiqargan korxona sinovlardan o‘tkaziladi va eng ishonchlisi tanlanadi. Transport vositasining tormoz tizimi konstruksiyasiga o‘zgartirilishi esa, harakat vaqtida tormoz tizining ishlamay qolishiga yoki samaradorligining tushib ketishiga sabab bo‘lishi mumkin. **Bu esa, turli YTHlarning keltirib chiqarishi mumkin.**





Agar avtomobil tormoz tizimining samaradorligi reglamentda belgilangan past bo'lsa, bunda avtomobilning tormoz tizimi nosoz hisoblanadi. Shu sababli, haydovchida xavfni oldini olish imkoniyati kam bo'ladi. Buning oqibatida oldinda harakatlayotgan transport vositasi sekinlashganida yeki to'xtaganida, oraliq masofani saqlab kelayotgan haydovchining YTHni oldini olish imkoniyatini kamaytirib yuborishi hamda **YTHlarning sodir bo'lish extimolini oshirib yuboradi**.

Agar avtomobil tormoz tizimining samaradorligi reglamentda belgilangan past bo'lsa, bunda avtomobilning tormoz tizimi nosoz hisoblanadi. Shu sababli, haydovchida xavfni oldini olish imkoniyati kam bo'ladi. Buning oqibatida oldinda harakatlayotgan transport vositasi sekinlashganida yeki to'xtaganida, oraliq masofani saqlab kelayotgan haydovchining YTHni oldini olish imkoniyatini kamaytirib yuborishi hamda **YTHlarning sodir bo'lish extimolini oshirib yuboradi**.



Ishchi tormoz tizimining samaradorligi avtotransport vositalari konstruksiyasining foydalanish shartlari bo'yicha xavfsizligi to'g'risidagi umumiy texnik reglamentda belgilangan talablardan past bo'lishi mumkin emas.



Gidravlik tormoz yuritmasining zichligi (germetikligi) buzilgan bo'lsa yoki suyuqlik oqishi mumkin emas. Gidravlik tormoz tizmining zichligi buzilganida yoki suyuqlik oqib turgan bo'lsa, tormoz tizimi ichida bosimning kamayishiga sabab bo'ladi hamda tormoz qolodkalari yetarli darajada siqilmaydi. Bu esa avtomobilning tormoz yo'lini ortib ketishga sabab bo'ladi.

### Avtomobil dvigateli ishlamay turganda pnevmatik yoki pnevmogidravlik tormoz yuritmasining zichligini buzilishi:


boshqaruv qismlari  
ulanmaganda - 30  
daqiqada

ulanganida - 15  
daqiqada

tizimdagi havo  
bosimini 0,05 MPa dan  
ko'pga pasayishiga  
sabab bo'lishi yoki  
g'ildiraklardagi tormoz  
kameralaridan siqilgan  
havo chiqishi  
kuzatilganida

Avtomobil dvigateli ishlamay turganda pnevmatik yoki pnevmogidravlik tormoz yuritmasidagi havo bosimining kamayishi tizimda havo chiqish borligini bildiradi. Ko'p holatlarda pnevmatik yoki pnevmogidravlik tormoz yuritmasi bilan jihozlangan avtomobillarning pnevmatik yoki pnevmogidravlik tormoz yuritmasining manometri ishlamasa transport vositasidan foydalanish mumkin emas. Agar tormoz yuritmasining manometri ishlamasa, haydovchida tormoz izining havo bosimini nazorat qilish va tizimdagi nosozlikni aniqlash imkoniyatini bermaydi. Bu esa, havo chiqishi kuzatiladiganida ham haydovchisi uni aniqlay olmaydi.

## TORMOZ TIZIMINI TEKSHIRISH QUYIDAGILARNI O'Z ICHIGA OLADI



To‘xtab turish tormoz tizimi transport vositalarini to‘liq jihozlangan holatdagi transport vositalarini — 16 foizdan kam bo‘lmagan qiyalikda, to‘liq jihozlangan holatdagi yengil avtomobilarni va avtobuslarni — 25 foizdan kam bo‘lmagan qiyalikda va to‘liq jihozlangan holatdagi yuk avtomobillarini va avtopoezdlarni — 31 foizdan kam bo‘lmagan qiyalikda ushlab tura olmasa avtomobilning to‘xtab turish tormoz tizimi nosoz hisoblanadi va undan foydalanish taqiqlanadi.

Avtomobilining to‘xtab turish tormoz tizimi arqonining cho‘zilishi eskirishi yoki uzilishi oqibatida to‘xtab turish tormoz tizimi nosoz holatga kelib qolishi mumkin. Buning oqibatida haydovchi to‘xtab turish tormoz tizimini ishga tushirganida ham avtomobil o‘z-o‘zidan yurib ketishi mumkin.

## Transport vositalarining rul boshqaruvi bo‘yicha:



Transport vositalaridan xavfsiz foydalanishda transport vositasi rul boshqaruvi qurilmasining lyuft yig‘indisi reglament (qat’iy belgilangan) sharoitlardagi sinovlarda M1 -10, M2,M3,N1-20 va N2,N3 toifadagi transport vositalari uchun 25 darajadan katta bo‘lmasligi kerak. Agar lyuft yig‘indisi yuqorida ko‘rsatilganidan oshgan bo‘lsa, transport vositasining rul boshqaruvi nosoz hisoblanadi va undan foydalanish taqiqlanadi. Transport vositasining rul

boshqaruvi qurilmasining lyuft yig‘indisi belgilangan oshib ketgan bo‘lsa, harakatga xavf tug‘ilgan vaqtida haydovchidan keskin yo‘nalishni o‘zgartirishga zaruriyati paydo bo‘lganida, haydovchi harakatni bajarishga kechikishiga sabab bo‘ladi. Buning oqibatida haydovchi harakatni bajarishga ulgurmasligi hamda YTX sodir bo‘lishiga sabab bo‘lishi mumkin.

Transport vositalarining rul boshqaruvi detal va bog‘lamlarning konstruksiyasida ko‘zda tutilmagan siljishlari bo‘lsa. Rezbali birikmalar tegishli ravishda mahkamlanmagan yoki o‘rnatilgan usulda qotirilmagan bo‘lsa, rul kolonkasining qulflovchi moslamasi ishlamasa, transport vositasining rul boshqaruvi nosoz hisoblanadi va undan foydalanish taqiqlanadi.

Transport vositalarining rul boshqaruvi detal va bog‘lamlarning konstruksiyasida ko‘zda tutilmagan siljishlari bo‘lsa yoki Rezbali birikmalar tegishli ravishda mahkamlanmagan yoki o‘rnatilgan usulda qotirilmagan bo‘lsa, rul kolonkasining qulflovchi moslamasi ishlamasa, transport vositasining harakatlanish vaqtida rul boshqaruvi detllari bo‘shab ketishi hamda harakat davomida rul boshqaruvi ishlamay qolishiga olib kelishi mumkin.

Transport vositalarining rul boshqaruvi qurilmasining konstruksiyasida ishlab chiqarushi tomonidan ko‘zda tutilgan kuchaytirgich yoki motosikllarda tebranishni pasaytiruvchi moslama (dempfer) nosoz bo‘lsa yoki umuman bo‘lmasa, transport vositasining rul boshqaruvi nosoz hisoblanadi va undan foydalanish taqiqlanadi.

Transport vositalarining rul boshqaruvi qurilmasining konstruksiyasida ishlab chiqarushi tomonidan ko‘zda tutilgan kuchaytirgich yoki motosikllarda tebranishni pasaytiruvchi moslama (dempfer) nosoz bo‘lsa yoki umuman bo‘lmasa, rul boshqaruvi og‘irlashadi. Buning oqibatida harakatga xavf tug‘ilgan vaqtida haydovchidan keskin yo‘nalishni o‘zgartirishga zaruriyati paydo bo‘lganida, haydovchi harakatni bajarishga kechikishiga sabab bo‘ladi. Buning oqibatida haydovchi harakatni bajarishga ulgurmasligi hamda YTX sodir bo‘lishiga sabab bo‘lishi mumkin.

Transport vositalarining rul boshqaruvi qurilmasida qoldiq deformatsiya izlari, darz ketgan joylari va boshqa nuqsonlari bo‘lgan qismlar o‘rnatilgan, shu transport vositasi turida ko‘zda tutilmagan yoki ishlab chiqargan korxona talabiga mos kelmaydigan qismlar va suyuqliklar qo‘llangan bo‘lsa, transport vositasining rul boshqaruvi nosoz hisoblanadi va undan foydalanish taqiqlanadi.

Transport vositalarining rul boshqaruvi qurilmasida qoldiq deformatsiya izlari, darz ketgan joylari va boshqa nuqsonlari bo‘lgan qismlar o‘rnatilgan, shu transport vositasi turida ko‘zda tutilmagan yoki ishlab chiqargan korxona talabiga mos kelmaydigan qismlar va suyuqliklar qo‘llangan bo‘lsa, transport vositasining harakatlanish vaqtida rul boshqaruvi detllari bo‘shab ketishi hamda harakat davomida rul boshqaruvi ishlamay qolishiga olib kelishi mumkin.

### **Transport vositalarining yoritish chiroqlari bo‘yicha:**



Transport vositalarining tashqi yoritgichlar soni, turi, joylashuvi va ishlash tartibi transport vositasining konstruksiyasi talabiga mos kelmasa, yoki yorituvchi chiroq nurining yo‘nalishi buzilgan bo‘lsa transport vositasining tashqi yoritgichlari nosoz hisoblanadi va undan foydalanish taqiqlanadi.

Transport vositalarining tashqi yoritgichlar va nur qaytargichlar belgilangan tartibda ishlamayotgan yoki ifloslangan bo‘lsa, transport vositasining tashqi yoritgichlari nosoz hisoblanadi va undan foydalanish taqiqlanadi.

taqiqlanadi.

Transport vositalarining yoritish asboblarida nur sochuvchisi bo‘lmasa yoxud tegishli yorug‘lik asboblari turiga mos bo‘lmanur sochuvchi va ishlab chiqaruvchi korxona tomonidan ko‘zda tutilmagan lampalardan foydalanilgan bo‘lsa, transport vositasining tashqi yoritgichlari nosoz hisoblanadi va undan foydalanish taqiqlanadi.

Transport vositasi old qismida — oq yoki sariq rangdan boshqa rangli tumanga qarshi faralar, sariq yoki zarg‘aldoq rangdan boshqa rangli burilishni ko‘rsatadigan miltillovchi chiroq, oq rangdan boshqa rangli nur qaytargichlar o‘rnatish taqiqlanadi.

Transport vositasi orqa qismida — oq yoki sariq rangdan boshqa rangli orqaga harakatlanish, oq rangdan boshqa ro‘yxatdan o‘tkazish davlat raqam belgilarini yorituvchi chiroqlar, sariq yoki zarg‘aldoq rangdan boshqa rangli burilishni ko‘rsatadigan miltillovchi chiroq, qizil rangdan boshqa rangli tashqi yoritgichlar, qizil rangdan boshqa rangli nur qaytargichlar o‘rnatish taqiqlanadi.

Transport vositasi yon qismida — sariq yoki zarg‘aldoq rangdan boshqa rangli yoritgichlar, sariq yoki zarg‘aldoq rangdan boshqa rangli nur qaytargichlar o‘rnatish taqiqlanadi.


Velosipedning old tomoniga oq rangli nur qaytargich yoki chiroq, orqa tomoniga qizil rangli nur qaytargich yoki chiroq, yon tomonlariga esa, zarg‘aldoq yoki qizil rangli nur qaytargich o‘rnatilmagan bo‘lsa, undan foydalanish taqiqlanadi.

yuk avtomobilari va tirkamalarning yon tomoniga zarg‘aldoq rangli va orqa tomoniga qizil rangli kuzovning gabarit parametrlarini belgilab turuvchi nur qaytargichlar o‘rnatilishi kerak.

Transport vositasining oyna tozalagich belgilangan tartibda ishlamayotgan bo‘lsa, yoki transport vositasining konstruksiyasida ko‘zda tutilgan oyna yuvgich ishlamayotgan bo‘lsa, undan foydalanish taqiqlanadi.

Transport vositalarining tashqi yoritgichlar soni, turi, joylashuvi va ishslash tartibi transport vositasining konstruksiyasi talabiga mos kelmasa, yoki yorituvchi chiroq nurining yo‘nalishi buzilgan bo‘lsa kunning qorong‘u vaqtida, transport vositasi haydovchisi uchun yetarli masofani yoritib bermasligi yoki boshqa harakat qatnashchilari uchun avtomobil gabariti va harakatiga oid ma’lumotlarning xato yetkaziligi natijasida YTHlarning kelib chiqishiga sabab bo‘lishi mumkin.

### **Transport vositalarining yurish qismi bo‘yicha:**



Transport vositalarining shina protektori naqshlarining qoldiq balandligi N2, N3, O3, O4 toifadagi avtotransport vositalari uchun — 1,0 mm dan kam bo‘lsa, M1, N1, O1, O2 toifadagi avtotransport vositalari uchun — 1,6 mm dan, kam bo‘lsa, M2, M3 toifadagi avtotransport vositalari uchun — 2,0 mm dan kam bo‘lsa hamda motosikl (motosikllarga tenglashtirilgan transport vositalari) va mopedlar (skuterlar, kvadrosikllar) uchun — 0,8 mm dan kam bo‘lsa ulardan foydalanish taqiqlanadi. Transport vositalarining shinalari protektori naqshlarining qoldiq balandligi belgilangandan kam bo‘lishi oqibatida shinaning yo‘l bilan ilashishi samaradorligi kamayib ketadi. Buning oqibatida harakat davomida boshqaruvni yo‘qoti to‘xtash vaqtida esa, tormoz yo‘lining ortib ketishi olib keladi. Bu esa, YTXlarning sodir bo‘lish xavfini oshirib yubordi.

Transport vositalarining shinalarda kordning ko‘rinishiga olib kelgan tashqi nuqsonlar (teshilgan kesilgan, yorilgan) hamda karkas qatlamlari ajralgan, protektor va yon qismlari ko‘chgan bo‘lsa, nosoz g‘isoblanadi va ulardan foydalanish taqiqlanadi. Harakat davomida shina ichidagi xavo haroatining ortishi oqibatida

Transport vositalarining shina protektori naqshlarining qoldiq balandligi N2, N3, O3, O4 toifadagi avtotransport vositalari uchun — 1,0 mm dan kam bo‘lsa, M1, N1, O1, O2 toifadagi avtotransport vositalari uchun — 1,6 mm dan, kam bo‘lsa, M2, M3 toifadagi avtotransport vositalari uchun — 2,0 mm dan kam bo‘lsa hamda motosikl (motosikllarga tenglashtirilgan transport vositalari) va mopedlar (skuterlar, kvadrosikllar) uchun — 0,8 mm dan kam bo‘lsa ulardan foydalanish taqiqlanadi. Transport vositalarining shinalari protektori naqshlarining qoldiq balandligi belgilangandan kam bo‘lishi oqibatida shinaning yo‘l bilan ilashishi samaradorligi kamayib ketadi. Buning oqibatida harakat davomida boshqaruvni yo‘qoti to‘xtash vaqtida esa, tormoz yo‘lining ortib ketishi olib keladi. Bu esa, YTXlarning sodir bo‘lish xavfini oshirib yubordi.

shina ichida bosim oratadi va bu kabi nosozliklar natijasida harakat davomida shinaning yorilib ketishiga sabab bo‘lishi mumkin.

Qo‘shaloq shinalar orasiga xavf-xatar tug‘diruvchi begona jismlar qisilib, tiqilib qolgan bo‘lsa, u bilan harakatlanish taqiqlanadi. Qo‘shaloq shinalar orasiga kirib qolgan jismlar shinaning aylanishi vaqtida shina bilan ishkalanishi natijasida shina qiziydi hamda kesilib yerilib ketishi extimoli oshib ketadi.

Shina o‘lchamlari yoki yo‘l qo‘yilgan og‘irlilik transport vositasining turiga mos kelmasa yoki transport vositasining bitta o‘qiga har xil o‘lchamli va konstruksiyali (dioganalli va radialli, kamerali va kamerlasiz), har xil naqshli, sovuqqa chidamli va chidamsiz, yangi va qayta tiklangan, yangi va protektor naqshi chuqurlashtirilgan, turumlangan va turumlanmagan shinalar o‘rnatalishi taqiqlanadi. Bu kabi xolatlarda shinalarga taqsimlanadigan og‘irlilik muvozanati buziladi hamda shinaga me’yordan ortik og‘irlilik tushishi natijasida shinaning harakat davomida yorilib ketishiga sabab bo‘lishi va transport vositasining yo‘ldan chiqib ketishiga sabab bo‘lishi mumkin.

G‘ildirakni mahkamlovchi bolt (gayka) bo‘lmasa, disk va g‘ildirak obodlari darz ketgan bo‘lsa yoki mahkamlash teshiklarining shakli va o‘lchamlari ko‘rinadigan darajada buzilgan bo‘lsa, bu nosozliklar bilan harakatlanish taqiqlanadi. Harakat davomida g‘ildirakka ta’sir etuvchi markazdan qochma kuch natijasida g‘ildirakning maxkamlangan joyidan chiqib ketishiga sabab bo‘lishi mumkin. Harakat davomida g‘ildirakning chiqib ketishi, g‘ildirakdagi inersiya kuni natijasida katta tezlik bilan otilib ketishiga olib kelishi mumkin. Bunda avtomobil yo‘ldan chiqib ketishi hamda shina boshqa harakat qatnashchilariga urilish natijasida katta talofatlarni keltirib chiqarishi mumkin.

### **Transport vositalarining dvigatelini va boshqa qismlari bo‘yicha:**



sarfining ortishi hamda atrof muxitning ekologik holatini yomonlashuviga olib keladi. Transport vositasining dvigatelidan chiqindi gazlar tarkibida zararli moddalar yoki tutash darajasi belgilangan me’yordan ortiqligi haydovchi va boshqa insonlarning sog‘liqlariga xavf tug‘diradi.

Aholi punktlarida transport vositalarining magnitofon va ovoz chiqaruvchi boshqa apparaturalarini hamda dvigatel shovqinini belgilangan me’yordan baland

Transport vositasining dvigatelidan chiqindi gazlar tarkibida zararli moddalar yoki tutash darajasi belgilangan me’yordan ortiq bo‘lsa, yonilg‘i uzatish tizimi zinch bo‘lmasa, ishlab chiqarilgan gazlarni chiqarib tashlash tizimi ishlamasи, karterni shamollatish tizimining zichligi buzilgan bo‘lsa, transport vositasi nosoz hisoblanadi va undan foydlanish taqiqlanadi. Bu kabi nosozliklar, yoqilg‘i moylash materiallari

ovozda qilib foydalanish taqiqlanadi. Transport vositalarining belgilangan me'yordan baland ovozda qilib foydalanish insonlar tinchini buziliga sabab bo'lishi mumkin. Ba'zi joylarda (kasalhona va shu kabilar) yaqinida tovush signalidan foydalanish taqiqlangan bo'lishi mumkin. Shuningdek, doimiy yuqori tovush ta'sirida bo'lish ham haydovchining asab tizimi buzilishiga sabab bo'lishi mumkin.

Haydovchining joyidan tevarak-atrof ko'rinishini cheklaydigan qo'shimcha narsalar o'rnatilgan va qoplamlar tushirilgan bo'lsa, transport vositasi salonidagi va ikki yonidagi orqa tomonni ko'rish ko'zgusiga ko'rinishini cheklaydigan buyum, narsa yoki jihozlar taqilgan bo'lsa, barcha transport vositasining old, yon oynalarining yorug'lik o'tkazuvchanligi 70 foizdan kam bo'lsa, konstruksiyasida ko'zda tutilgan yukxona yoki kabina eshiklarining qulflari, yuk platformasi bortlarining yopqichlari, sisternalar og'zining qulflari va yonilg'i idishining qopqoqlari, haydovchi o'rindig'i holatini sozlovchi qurilma, avtobusda falokat yuz bergen vaqtida eshiklarni ochish moslamasi va to'xtatish talabi ishorasi, avtobus salonini yoritish asboblari, falokat yuz bergen vaqtida chiqish joylari va ularni harakatga keltiruvchi moslamalari, eshiklarni ochish va yopish qurilmalari, spidometr, taxograf, oynalarni isituvchi va shamollatuvchi moslamalari va haydab olib qochishga qarshi moslamalari ishlamasa, transport vositasi konstruksiyasida ko'zda tutilgan orqa himoya vositasi, loy to'sgichlar bo'lmasa, ishlab chiqargan korxona tomonidan ko'zda tutilmagan antenna, sirena, ratsiya, tovush chiqarish moslamalari, yoritgichlar, konstruksiyasida ko'zda tutilmagan nostandard yukxonalar va boshqalar belgilanmagan joyda va tegishli ruxsatsiz o'rnatilsa, dvigatel, uzatmalar qutisi, reduktorlar, orqa ko'pri, ilashish (sseplenie) mexanizmi, akkumulator batareyasi, sovitish va konditsioner tizimlari va transport vositasiga qo'shimcha o'matiladigan gidravlik qurilmalarning (moslamalarning) birikmalari va zichlagichlarining zichligi buzilgan bo'lsa, gazli ta'minlash tizimi bilan jihozlangan avtobus va avtomobil gaz ballonlarining tashqi tomonida ko'rsatilgan texnik ko'rsatgichlar texnik pasportdagi ma'lumotlarga mos kelmasa, oxirgi va rejalahshtirilayotgan tekshiruvlarning sanasi bo'lmasa, tanaport vositasidan foydlanish taqiqlanadi. Ayniqsa yuk avtomobilarida haydovchi o'rindig'idan avtomobil gabariti yon tomonlarni ko'rishiga to'sqinlik qiladi. Shu sababli, avtomobil oldini yon tomonlarni qo'shimcha qo'rish uchun mo'ljallangan kuzgular o'rnatiladi. Amaliyotdan ma'lumki, yuk avtomobilida harakatni boshlash vaqtida juda ko'plab YTXlar sodir bo'ladi. ayniqsa, ishlab chiqarish hududlarida insonlarni bosib ketish bilan bog'lik YTXlar juda ko'p uchrab turadi. Shu sababli, old va yon tomonlarni ko'rish kuzgulari o'rnatish va ulardan foydalanish juda muxim xisoblanadi.

Shahar ichi avtobuslarda o'rindiqli va tik xolatda yo'lovchi tashishga mo'ljallangan bo'ladi. Bugungi kunda me'yordan ortiq odam tashish holatlari ko'p uchrab turadi. Ortiqcha og'irlik avtobusning tormoz yo'lini ortib ketishi hamda yurish qismiga tushadigan og'irlilikning ortishi esa, yurish qismi detallari va shinalarining sinishi, yorilishi kabi holatlarni keltirib chiqaradi. Shaxar ichida harakatlanuvchi avtobuslarda standart talablari bo'yicha bir yo'lovchiga 0,15 dan 0,2 m<sup>2</sup> joy to'g'ri kelishi ko'rsatib o'tilgan. Shunga ko'ra, avtobus salonida 1 m<sup>2</sup> joyda tik turgan yo'lovchilar soni 5-6 kishini oshib ketmasligi kerak.

**Transport vositasini qishki mavsumga tayyorlash uchun tavsiyalar:**



Sovutish tizimidagi suyuqlikni almashtiring;



Akkumulator quvvatini tekshiring va klemmalarni tozalang;



Oyna yuvish bachogini muzlamaydigan suyuqlik bilan to'ldiring;



Yangi svechalar o'rnatiting;



Dvigatel moyini va filtrini almashtiring;



Yoqilg'i filtrini almashtiring;



Qish mavusimga mo'ljallangan shinalarni o'rnatiting;



Tormoz suqligini va tormoz kolodkalarini almashtiring;



Eshik qulflarini moylang;



Zanglashga qarshi suritma bilan kuzov qismiga ishlov bering.

**Transport vositasida yo'lga chiqishdan oldin tekshirish lozim bo'lgan jiholar:**

- Faralar ishlashini;
- Oldi va orqa yoritishi tizimini ishlashini;
- Oyna tozalig'ichlarini ishlashini;
- Eshik va oynalarini rezinalarini;
- Sovutish tizimini termostatini;
- Isitgich tizimini.

- |  |   |  |  |  |                                |  |                       |  |                                  |
|--|---|--|--|--|--------------------------------|--|-----------------------|--|----------------------------------|
|  | Замените охлаждающую жидкость, промойте всю систему |  | Зарядите аккумулятор и очистите клеммы |  | Залейте незамерзающую жидкость |  | Поставьте новые свечи |  | Замените масло и масляный фильтр |
|--|---|--|--|--|--------------------------------|--|-----------------------|--|----------------------------------|



**ПРОВЕРЬТЕ:**

- |   |                               |   |                              |
|---|-------------------------------|---|------------------------------|
|  | фары                          |  | резиновые уплотнители дверей |
|  | приборы световой сигнализации |  | термостат системы охлаждения |
|  | стеклоочистители              |  | отопитель                    |

**ЗИМНИЙ НАБОР АВТОЛЮБИТЕЛЯ:**

- |   |   |   |                     |
|---|---|---|---------------------|
|  | проводы для прикуривания                          |  | щиток для радиатора |
|  | скребок со щёткой                                 |  | трос                |
|  | резиновые коврики с высоким бортом на полу салона |   |                     |



Консультация специалистов обязательна!

